



OG'IR SHAROITLI TUMANLARDA BARQARORLIK REYTINGI YUQORI TADBIRKORLIK SUBYEKTLARI UCHUN MOL-MULK SOLIG'I BO'YICHA DIFFERENSIAL IMTIYOZLI STAVKALAR QO'LLASH SAMARADORLIGI

EFFECTIVENESS OF APPLYING DIFFERENTIAL PREFERENTIAL PROPERTY TAX RATES FOR HIGH-STABILITY-RATING BUSINESS ENTITIES IN ECONOMICALLY DISADVANTAGED DISTRICTS

¹**Abdullayev Zafarbek Safibullayevich**

¹Namangan davlat universiteti, "Menejment" kafedrası dotsenti v.b.,
iqtisodiyot fanlari doktori (DSc). **ORCID:** 0009-0000-2685-5398,
G-mail: zafarbek.abdullayev555@gmail.com

Annotatsiya Abstract

Uzb. - Maqolada O'zbekistonning og'ir sharoitli (4-5-toifa) tumanlarida faoliyat yuritayotgan va barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha differensial, jumladan regressiv imtiyozli stavkalar qo'llash samaradorligi tahlil qilinadi. Tadqiqotning maqsadi reytingga bog'langan imtiyozli stavkalar tizimining kichik biznes faolligi, bandlik, investitsiyalar va budjet tushumlariga ta'sirini baholash uchun kompleks uslubiy model ishlab chiqishdan iborat. Metodologiya sifatida difference-in-differences (DID) yondashuvi, panel ma'lumotlar regressiyasi, hududiy fiksirlangan effektlar va solishtirma tahlil qo'llanadi. Statistika agentligi, Davlat soliq qo'mitasi va Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlari asosida og'ir va nisbatan rivojlangan tumanlar kesimida soliq imtiyozlari tatbiq etilgandan keyingi dinamikaga baho beriladi. Dastlabki hisob-kitoblar mol-mulk solig'i stavkalarining pasaytirilishi og'ir hududlarda kichik biznes zichligi va bandlik o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatganini, yo'qotilgan mol-mulk solig'i tushumining bir qismi QQS va boshqa soliqlar hisobiga qoplanishini ko'rsatadi. Taklif etilgan reytingga bog'langan regressiv stavkalar modeli resurslarni halol va barqaror korxonalarga manzilli yo'naltirish hamda fiskal barqarorlikni saqlagan holda place-based soliq siyosatini takomillashtirishga xizmat qiladi.

Eng. - The article examines the effectiveness of applying differentiated – including regressive – preferential property tax rates for high-stability-rating business entities operating in economically disadvantaged (4th–5th category) districts of Uzbekistan. The main objective is to develop a comprehensive methodological framework for assessing the impact of rating-linked preferential tax rates on small business activity, employment, investment and local budget revenues. The research methodology combines a difference-in-differences (DID) approach, panel data regression with regional fixed effects and comparative regional analysis. Using data from the Statistics Agency, the Tax Committee and the Chamber of Commerce and Industry, the study compares the dynamics of key indicators in "heavy-condition" versus more developed districts after the

introduction of property tax relief. Preliminary estimates indicate that lower property tax rates have accelerated the growth of small business density and employment in lagging areas, while part of the forgone property tax revenues is offset by higher VAT and other tax receipts. The proposed regressive rate schedule linked to stability rating categories (BBB–AAA) allows tax incentives to be targeted at compliant and financially sound firms, thereby improving the effectiveness of place-based tax policy while maintaining fiscal sustainability.

Kalit soʻzlar:

Keywords:

❖ *barqarorlik reytingi, mol-mulk soligʻi, differensial soliq stavkalari, regressiv imtiyozlar, ogʻir sharoitli tumanlar, place-based soliq siyosati, difference-in-differences, kichik biznes faolligi, fiskal barqarorlik.*

❖ *stability rating, property tax, differential tax rates, regressive tax incentives, economically disadvantaged districts, place-based tax policy, difference-in-differences, small business activity, fiscal sustainability.*

Kirish.

Mamlakatning turli hududlari iqtisodiy rivojlanish darajasi boʻyicha keskin farqlanadi. Yirik shaharlar va sanoat markazlarida biznes muhit nisbatan qulay boʻlsa, "sharoiti ogʻir" toifasiga kiruvchi olis va infrastruktura zaif tumanlarda tadbirkorlik sust rivojlangan. Masalan, 2023-yilda aholiga nisbatan mingta kichik biznes subyekti soni poytaxt va rivojlangan shaharlarda 30 dan oshgan boʻlsa, baʼzi chekka tumanlarda bu koʻrsatkich atigi 7–10 atrofida edi. Hududlar rivojidadagi bunday tafovutlarni kamaytirish va iqtisodiy barqarorlikni taʼminlash maqsadida hukumat mahalliy darajada tabaqalashtirilgan soliq yengilliklari siyosatini joriy etmoqda. 2023-yil 1-yanvardan boshlab, Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining farmoniga muvofiq barcha shahar va tumanlar 5 ta toifaga ajratildi va eng past 5-toifa yaʼni sharoiti ogʻir tumanlar hududlarda faoliyat yuritayotgan tadbirkorlarga 2026-yil boshigacha soliq solishning imtiyozli tartibi berildi [1]. Jumladan, 5-toifadagi tumanlarda tadbirkorlik subyektlari yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq va yuridik shaxslardan olinadigan yer soligʻini mazkur soliqlar boʻyicha hisoblangan summaning 50 foizi miqdoridagi soliq stavkalari boʻyicha toʻlaydi. Bunda yirik soliq toʻlovchilar, davlat korxonalari kabi ayrim kategoriyalar bundan

mustasno etildi. Shunday qilib, eng ogʻir hududlarda mavjud soliq stavkalari pasaytirilib, tadbirkorlikni ragʻbatlantirishga qaratilgan keskin choralar koʻrilmoqda.

Shu bilan birga, hududiy imtiyozlarni samarali tatbiq etish uchun qaysi turdagi tadbirkorlarga qanday chegirmalar berishni optimallashtirish zarur. Taʼkidlash joizki, 2024-yildan boshlab Oʻzbekistonda tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingi joriy qilindi [2]. Bu reyting soliq intizomi, faoliyat barqarorligi kabi mezonlar asosida bizneslarning holatini baholab, ularni "AAA" dan "D" gacha toifalarga ajratadi. 2024-yil 1-apreldan boshlab turli subsidiyalar, imtiyoz va preferensiyalar aynan ushbu reyting darajasidan kelib chiqib taqsimlanishi belgilandi. Yuqori barqarorlik reytingiga ega masalan, "AAA" tadbirkorlik subyektlariga soliq tekshiruvlaridan ozod qilish, QQS qaytarishda soddalashtirilgan tartib yoki 4 va 5-toifadagi tumanlarda faoliyat yuritayotgan "AA" va undan yuqori toifadagi tadbirkorlik subyektlariga boʻlib-boʻlib toʻlash sharti bilan sotilgan davlat aktivlari boʻyicha dastlabki toʻlov summasi 35 foizdan kam boʻlgan hollarda qolgan summaga Markaziy bankning asosiy stavkasi miqdorida yillik foizlar hisoblanmay hamda 7 yilga (teng ulushlarda) boʻlib-boʻlib toʻlash muddati miqdoridan qatʼi nazar etib belgilanishi va boshqa ragʻbatlar berila

boshlandi. Barqarorlik reytingi yuqori tadbirkorlar ya'ni o'z faoliyatida qonunlarga to'liq rioya qilgan, moliyaviy barqaror va ishonchli bizneslarni qo'llab-quvvatlash ulardan kelgusida budjetga tushumlar va yangi investitsiyalar kutilishi nuqtai nazaridan samarali mexanizm hisoblanadi. Shunday ekan, og'ir sharoitli tumanlarda aynan mana shunday barqaror va ishonchli bizneslarga mol-mulk solig'i bo'yicha qo'shimcha yengilliklar taqdim etish tashabbusi mantiqiydir.

Ushbu ilmiy maqolaning maqsadi og'ir hududlarda barqarorlik reytingi yuqori tadbirkorlarga differensial (jumladan, regressiv) imtiyozli mol-mulk solig'i stavkalarini qo'llash samaradorligini baholash uchun kompleks uslubiy tizim ishlab chiqish va taklif etishdan iborat. Maqolada maxsus soliq preferensiyalarining effektini o'lchashning ilmiy asoslangan modelini yaratish hamda ushbu yondashuvning amaliy natijalarini tahlil qilinadi.

Mavzuga oid adabiyotlar sharhi.

Hududlar kesimidagi differensial soliq stavkalari davlat tomonidan iqtisodiy jihatdan orqada qolayotgan mintaqalarni rivojlantirish maqsadida qo'llaniladigan muhim iqtisodiy vositadir. Differensial yondashuv deganda, hududlarning mavjud sharoiti va salohiyatidan kelib chiqib soliqqa tortish shartlarini farqlash tushuniladi. Masalan, rivojlangan hududlarda odatdagi soliq stavkalari saqlanib, iqtisodiy jihatdan og'ir tumanlarda esa stavkalar pasaytiriladi. O'zbekiston joriy etilgan 5 toifali hududiy tasnif bunga misol bo'la oladi. Eng qulay sharoitli 1-toifa uchun imtiyozlar berilmasa, 4- va 5-toifa tumanlarda esa soliq stavkalari bo'yicha imtiyozlar berishga qaratiladi. Bunda adolat tamoyili va hududiy muvozanatga erishish maqsadi ko'zlangan. Soliq yuki eng qiyin hududlarda minimal darajaga tushirish orqali, u yerda yangi biznes boshlash yoki davom ettirish iqtisodiy jihatdan jozibador bo'ladi.

Soliq stavkalarini shakllantirishda regressiv mezonlardan foydalanish ayniqsa qiziq usullardan biridir. Soliq tizimida regressiv stavka deganda soliq bazasi oshgan sari stavkaning pasayib borishi nazarda tutiladi. Jahon amaliyotida bunday regressiv soliqqa tortish kam qo'llanadi, odatda maxsus rag'batlantirish uchun ishlatiladi. Regressiv stavkalar iqtisodiyotda yirik soliq to'lovchilarga nisbatan imtiyoz berishi tufayli tortishuvli bo'lishi mumkin. Biroq, aynan investitsiyalarni rag'batlantirish nuqtai nazaridan regressiv yondashuv ma'lum vaziyatlarda o'zini oqlaydi. Bu esa og'ir hududlarga barqaror investorlarni jalb etishga xizmat qilishi mumkin, chunki katta mulk uchun soliq yukining pastligi ularni og'ir hududda korxona ochishga undaydi. Shu bois, maqolamiz mavzusida soliq preferensiyalari nafaqat hududlar bo'yicha farqlanishi va tabaqalashtirilishi, balki ichki tuzilishi ham regressiv shaklga ega bo'lishi mumkin.

W.J. Baumol (1996) tomonidan tadbirkorlikning iqtisodiy tizimdagi o'rni tahlil qilinarkan ekan, u samarali muhit yaratish uchun davlatning rag'batlantiruvchi va tartibga soluvchi siyosatini muhim deb hisoblaydi. Uning yondashuvi bugungi kunda reyting tizimlarining shakllanishiga nazariy asos yaratadi [3].

J.A. Timmons (1989) esa barqaror tadbirkorlikni o'zgaruvchan iqtisodiy va institutsional muhitga tez moslasha oladigan, innovatsion salohiyatga ega va yangiliklarni qabul qilishga qodir subyekt sifatida tavsiflaydi. Timmons modeli risk va barqarorlikni integratsiyalashgan holda baholash zaruratini ta'kidlaydi [4].

Kuckertz & Wagner (2010) barqaror tadbirkorlik mezonlarini ijtimoiy, ekologik va iqtisodiy ko'rsatkichlar birligi asosida tizimli yondashuv orqali baholashni taklif etadi. Bu yondashuv reyting tizimlarini shakllantirishda mezonlararo bog'liqlikni chuqur tahlil qilishga imkon beradi [5].

Hyejin Ku va boshq. (2020) Hududiy soliq imtiyozlarini joriy etishdan ko'zlangan asosiy maqsad og'ir sharoitli hududlarda biznes faolligini oshirish, yangi investitsiyalar va ish o'rinlarini yaratish, iqtisodiy infratuzilmani rivojlantirish orqali hududlararo tafovutlarni qisqartirishdir. Bunday joylashuvga bog'liq preferensiyalar ya'ni "place-based incentives" xorijiy mamlakatlar tajribasida ham qo'llanilib, ma'lum natijalar bergan. Masalan, Norvegiyada uzoq vaqt davomida geografik differensial soliqlari qo'llanilib, eng chekka mintaqalarda ish beruvchilar uchun ijtimoiy soliq stavkasi 0% gacha pasaytirilgan bo'lgan, markaziy hududlarda bu stavka 14% hisoblangan. Keyinchalik ushbu hududiy soliq imtiyozlari Yevropa Ittifoqining raqobat qoidalariga ko'ra bekor qilinganda, soliq stavkalarining oshishi bevosita ta'sir ko'rsatgan chekka mintaqalarda bandlik sezilarli darajada qisqargani kuzatildi. Bu holat joylardagi soliq yengilliklari uzoq hududlarda iqtisodiy faollikni qo'llab-quvvatlashda haqiqatan samara berishi mumkinligini ko'rsatadi [6].

O'zbekistonda barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlari soliqlarni kamaytirish yoki to'lamaslik huquqiga ega emaslar, biroq davlat tomonidan qator rag'batlantiruvchi choralar bilan qo'llab-quvvatlanadi. Masalan, Sh.Nurmatov [7] o'z tadqiqotlarida shuni qayd etadiki "Barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan tadbirkorlar soliqlardan to'liq ozod qilinmasada, ular davlat tomonidan ajratiladigan moliyaviy resurslar, investitsiya yordami va boshqa preferensiyalardan foydalanish imkoniyatiga ega bo'ladilar". Shu nuqtayi nazardan, reyting tizimi soliq yengilliklari bilan bir qatorda biznes muhitining shaffofligi va soliq intizomini oshirishga xizmat qiladi.

U.Normurzaev [8] ilmiy ishlarida "Soliq imtiyozlari - soliq to'lovchilarning ayrim toifalariga boshqa soliq to'lovchilarga nisbatan soliq to'g'risidagi qonun hujjatlarida nazarda tutilgan afzalliklar, shu jumladan, soliqni to'lamaslik yoki ularni kamroq miqdorda

to'lash imkoniyati hamda soliq imtiyozlarini hisobga olish soliq organlari tomonidan axborot tizimlaridan foydalangan va soliq imtiyozlarining har bir turiga maxsus identifikatsiya kodini bergan holda amalga oshirish kerakligini maqsadga muvofiq" - deb hisoblaydi.

Z.Abdullayev [9] hududiy soliq imtiyozlarini baholash bo'yicha adabiyotlar tahlili shuni ko'rsatadiki, joylashuvga bog'liq soliq stimulinig samaradorligi ko'p omillarga bog'liq. Soliq yukining kamayishi darajasi, mehnat bozorining xususiyatlari, infratuzilma holati, ajratilayotgan imtiyozlardan foydalanuvchi bizneslarning sifatiga yoki barqarorligiga va boshqalarga ta'sir etadi. Shuning uchun ushbu maqolada taklif etilayotgan uslubiyot mazkur omillarni hisobga olgan kompleks yondashuv bo'lib, u differensial va regressiv soliq imtiyozlarining real natijalarini iqtisodiy-statistik usullar bilan baholashga yo'naltiriladi.

Tadqiqot metodologiyasi.

Tadqiqot modeli sifatida biz soliq imtiyozlarining samaradorligini baholash uchun ekonometrik regressiya tahlilini tanladik. Xususan, "difference-in-differences" (DID) usuli asosida tajriba guruhi (imtiyoz qo'llanilgan hududlar) va nazorat guruhi (imtiyoz qo'llanilmagan hududlar) natijalarini qiyosiy tahlil qilish nazarda tutildi. DID usuli siyosat o'zgarishining sabab-oqibat ta'sirini ajratib ko'rsatishda samarali bo'lib, ko'plab ilmiy ishlarda hududiy imtiyozlar effektini o'lchashda qo'llangan.

Bizning holatda, tajriba guruhi sifatida og'ir sharoitli 5-toifa tumanlarida faoliyat yuritayotgan va mol-mulk solig'i bo'yicha imtiyozdan foydalangan tadbirkorlik subyektlari olinadi. Nazorat guruhi esa shunga o'xshash davrda imtiyoz olmagan hududlar masalan, 1- yoki 2-toifa tumanlar ko'rsatkichlaridan iborat bo'ladi. Tadqiqot davri sifatida soliq imtiyozlari joriy etilishidan oldingi va keyingi davrlar qiyoslanadi.

Baholash ko'p davrli panel ma'lumotlar bazasiga tayanib amalga oshiriladi, bunda har bir tumanning yilma-yil ko'rsatkichlari kuzatib boriladi.

Asosiy ko'rsatkich sifatida hududlarda kichik biznes rivojlanishining bir nechta indikatorlari qo'llanilishi mumkin:

- Kichik tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi yoki aholiga nisbatan ulushi. Bu imtiyoz berilgach yangi korxonalar ochilishi yoki faol korxonalar ko'payishini ko'rsatadi;

- Bandlik darajasi – imtiyozlar tufayli ish o'rinlari yaratilishini ifodalaydi;

- Hududiy asosiy kapitalga investitsiyalar hajmi – soliq yuki pasayishi natijasida korxonalar ko'proq mablag'ni o'z ishlab chiqarish quvvatlarini kengaytirishga yo'naltirgan-yo'naltirmaganini o'lchaydi;

- Mahalliy budjet tushumlari dinamikasi – bir qarashda soliq stavkasi tushirilishi budjet daromadlarini kamaytirsada, iqtisodiy faollik ortishi hisobiga tushumlardagi o'zgarishni baholash kerak bo'ladi. Masalan, mol-mulk solig'idan tushum kamaygan bo'lsa-da, savdo hajmi oshib QQS tushumi yoki daromad solig'i tushumi ortishi mumkin.

Ushbu natija ko'rsatkichlari mustaqil ravishda yoki kompozit indeks ko'rinishida ham tahlil etilishi mumkin. Masalan, bir nechta omilni birlashtiruvchi "hududiy barqarorlik indeksi" tuzilib, DID usuli shu indeksga tatbiq qilinadi. Biroq, maqolada tushunarlik uchun alohida indikatorlar bo'yicha natijalar tahlil qilinadi.

Regressiya modeli tuzilishi: Soliq imtiyozining o'rtacha ta'sirini baholash uchun quyidagi panel regressiya modeli taklif etiladi (1).

$$Y_{it} = \alpha + \beta \cdot (Imtiyozli_{hudud_i} \times Imtiyoz_{davri_t}) + \gamma X_{it} + \mu_i + \lambda_t + \varepsilon_{it} \quad (1)$$

bu yerda:

Y_{it} – "i" hudud (tuman)ning "t"-yildagi natija ko'rsatkichi (masalan, kichik biznes subyektlari sonining o'sish sur'ati);

$Imtiyozli_{hudud_i}$ – agar "i"-tuman 5-toifa (og'ir sharoitli, imtiyoz berilgan) bo'lsa, 1 qiymatni oladigan indikator;

$Imtiyoz_{davri_t}$ – 2023-yil va undan keyingi davrlar uchun 1, oldingi yillar uchun 0;

Ularning ko'paytmasi " β " koeffitsient oldida turib, DID ta'sirini ifodalaydi;

μ_i – har bir hududga xos doimiy ta'sirlarni hisobga oluvchi individual efekt (fixed effect);

λ_t – umumiy vaqt effektlari (masalan, butun mamlakat bo'yicha 2023-yilda COVID-19 yoki boshqa omillar ta'siri bo'lsa) va X_{it} – natijaga ta'sir qiluvchi qo'shimcha boshqaruv o'zgaruvchilar (masalan, tuman aholisining soni, umumiy investitsiya dasturlari miqdori va boshqalar) kiritilishi mumkin.

ε_{it} – tasodifiy xatolik.

Ushbu modelning eng asosiy qismi " β " koeffitsientidir. U imtiyozlarning o'rtacha samaradorligini ko'rsatadi. Agar " β " statistik jihatdan sezilarli va musbat bo'lsa, demak og'ir tumanlarda soliq stavkalarini tushirish natijasida Y_{it} ko'rsatkichning o'sishi nazorat guruhiga nisbatan tezlashgan. Aksincha, " β " nolga yaqin yoki manfiy bo'lsa, imtiyoz kutilgan samara bermagan deb xulosa qilish mumkin bo'ladi.

Barqarorlik reytingi omilini modelga integratsiya qilish uchun qo'shimcha o'zgaruvchilar kiritamiz. Masalan, yuqoridagi modelni biroz kengaytirib, uch tomonlama o'zaro ta'sirni kiritish mumkin. bu yerda Yuqori Reyting – i hududdagi yuqori barqarorlik reytingiga ega tadbirkorlik subyektlarining ulushi yoki soni ko'rsatkichi. Bu qo'shimcha hadi " β " koeffitsienti bilan kiradi va imtiyozlarning aynan barqaror kompaniyalar ko'payishiga ta'sirini o'lchaydi. Agar " β " sezilarli bo'lsa, demak reytingi yuqori korxonalar imtiyozlardan ko'proq foyda ko'rgan yoki aksincha, past reytinglilar nisbatiga ta'sir. Shuningdek, reytingi yuqori subyektlar ulushini bevosita Y ning determinantlaridan biri sifatida ham ko'rib chiqish mumkin. Chunki bunday bizneslar ko'p

bo'lgan hududlarda iqtisodiy o'sish sur'ati balandroq bo'lishi tabiiy.

Tadqiqot uchun zarur statistik ma'lumotlar O'zbekiston Respublikasi Statistika agentligining ochiq axborotlaridan, Davlat soliq qo'mitasi hisobotlaridan va Savdo-sanoat palatasi ma'lumotlaridan yig'iladi. Jumladan, har bir tuman bo'yicha yillar kesimida ya'ni kichik tadbirkorlik subyektlari soni, ularning yalpi hududiy mahsulotdagi ulushi, bandlar soni, asosiy kapitalga investitsiya hajmi, mahalliy budjet daromadlari kabi ko'rsatkichlar olish ko'zda tutilgan. Shuningdek, Soliq qo'mitasining "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi" platformasi orqali hududlar kesimida yuqori reytingli subyektlar ulushi haqida ma'lumotlarni olish rejalashtirilgan. Qiyoslash uchun, imtiyoz berilmagan hududlar bo'yicha ham xuddi shu ko'rsatkichlar kerak bo'ladi.

Modelni baholashda panel ma'lumotlar econometrik usullari qo'llanadi. Xususan, yuqorida aytib o'tilgan hududiy fiksirlangan effektlar μ_i tufayli har bir hududning o'ziga xos doimiy xususiyatlari geografik joylashuvi, iqlimi, tarixiy rivojlanish darajasining ta'siri hisobga olinadi va adashgan xatolik kamayadi. Vaqt effektlari λ_t umumiy makroiqtisodiy omillarni qamrab oladi. Agar zarur bo'lsa, klasterlash (masalan, viloyatlar darajasida) orqali dispersiya bir jinsliligi sharti buzilmasligi uchun statistik xatoliklarni tuzatish rejalashtirilgan. Regressiya natijalari " β " koeffitsientning bahosi, uning standart xatosi, t-statistikasi va p qiymati kabi ko'rsatkichlar bilan taqdim etiladi. Shuningdek, modelning R^2 darajasi va umumiy ahamiyatlilik F-test natijasi keltiriladi.

Soliq imtiyozini baholashning kompleksligi shundaki, uni faqat bitta ko'rsatkich orqali o'lchash to'liq tasavvur bermasligi mumkin. Shu bois biz bir necha yo'nalishda samaradorlikni tahlil qilamiz:

❖ Iqtisodiy o'sish va biznes faolligi: Y sifatida tadbirkorlik subyektlari sonining o'sishi yoki yangi tashkil etilgan korxonalar

ulushi olinib, " β " koeffitsient orqali qo'shimcha tashkil etilgan bizneslar soni baholanadi.

❖ Bandlikka ta'sir: Hududdagi umumiy ish bilan bandlar sonidagi o'sish bo'yicha DID tahlil qilinadi. Bu bevosita ijobiy ijtimoiy samara mezonini bo'ladi.

❖ Soliq tushumlarining turlari bo'yicha tahlil: Mol-mulk solig'idan budjetga qancha kam mablag' tushgani va shu bilan birga boshqa soliqlardan tushum qanchaga ko'paygani solishtiriladi. Agar boshqa soliqdagi qo'shimcha tushum yo'qotilgan mol-mulk solig'ini qoplagan bo'lsa, bu fiskal jihatdan ham samaradorlik belgisi bo'ladi.

❖ Barqarorlik reytingiga ta'sir: Hududda yuqori reytingli subyektlar soni yoki ulushining o'zgarishi tahlil qilinadi. Imtiyoz sababli bizneslar faoliyatini yaxshilab, "yashirin iqtisodiyot"dan chiqib, qonuniy ishlashga o'tishi mumkin. Bu holda ko'proq korxonalar yuqori reyting oladi. Bunday ijobiy trend ham bilvosita samaradorlik indikatorini bo'la oladi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Dastlabki tahlillar hududiy soliq imtiyozlari joriy etilganidan so'ng qoloq tumanlarda ayrim ko'rsatkichlar bo'yicha sezilarli yaxshilanish borligini ko'rsatmoqda. Quyida eksperimental ma'lumotlar asosida tuzilgan jadval va grafiklar misolida natijalarni ko'rib chiqamiz.

1-jadvalda differensial tahlil uchun asos bo'ladigan ba'zi ko'rsatkichlar keltirilgan. Masalan, sharoiti og'ir 5-toifa tumanlarda 2022-yildan 2024-yilgacha har 1000 nafar aholiga to'g'ri keladigan kichik biznes subyektlari soni 9 birlikdan 12 birlikka oshgan. Soliq imtiyozi qo'llanilmagan nisbatan rivojlangan hududlarda esa xuddi shu davrda bu ko'rsatkich 30 dan 31 ga o'sgan faqat 1 birlikka. Ushbu farq DID usuli bilan tahlil qilinganda, taxminan +2 birlik atrofida ijtimoiy sof ta'sir (treatment effect) sifatida baholanadi. Boshqacha aytganda, agar imtiyozlar joriy etilmaganda, og'ir tumanlardagi biznes zichligi atigi +1 birlikka oshishi kutilardi. Amalda esa

+3 birlikni tashkil etdi, ya'ni qo'shimcha +2 birlik o'sish hududiy soliq preferensiyalari samarasi deb talqin qilish mumkin.


1-jadval

**Imtiyozli soliq stavkalari joriy etilgach kichik bizneslar soni o'zgarishi
(har 1000 aholiga nisbatan)**

Tuman toifasi	2022 (imtiyozdan oldin)	2024 (imtiyoz davri)	O'zgarish 2022-2024	DID ta'sir bahosi
Og'ir sharoitli (5-toifa)	9,0	12,0	+3,0	+2,0
Rivojlangan (1-toifa)	30,0	31,0	+1,0	(bazaviy)

Yuqoridagi 1-jadval ma'lumotlari soliq imtiyozlari samaradorligining ilk alomatlari borligini ko'rsatadi. Ayni paytda mavjud rasmiy statistik ma'lumotlar ham ijobiy dinamika borligini tasdiqlaydi. Masalan, 2023-yil davomida og'ir hududlarda yangi tashkil

etilgan tadbirkorlik subyektlari soni 2022-yilga nisbatan sezilarli oshgani kuzatilgan, ayrim tumanlarda bizneslar 10-15 foizga ko'paygan. Kelgusida yanada ko'proq davrlarni qamrab, ushbu trend mustahkam ekanligini statistik tekshirish zarur bo'ladi.



1-rasm. Sharoiti og'ir va rivojlangan hududlarda kichik biznes subyektlari zichligining 2018-2024-yillar davomida o'zgarish tendensiyasi

2023-yilda og'ir tumanlarda soliq stavkasi keskin pasaytirilganidan so'ng (vertikal punktir chiziq) biznes faolligi o'sishi tezlashgani ko'rinmoqda. Masalan, 5-toifa tumanlarda ming aholiga to'g'ri keluvchi kichik bizneslar soni 2022-yilgi 9 birlikdan 2024-yilda 12 birlikka yetgan bo'lsa, 1-toifa rivojlangan hududlarda bu ko'rsatkich 30 birlik atrofida 33 birlikka o'sgan xolos. Bu tafovut imtiyozlar hisobiga qoloq hududlarda biznes rivojlanishi tezroq kechganini anglatadi.

Yuqoridagi 1-rasmda ikki turdagi hududlarda kichik biznes subyektlari zichligi (har 1000 aholiga) bo'yicha trendlar qiyosiy grafik ko'rinishda tasvirlangan. Sariq chiziq iqtisodiy sharoiti nisbatan qulay hududlar 1-toifani, to'q sariq chiziq esa sharoiti og'ir tumanlar 5-toifani ifodalaydi. Ko'rinib turibdiki, 2018-2022-yillarda har ikkala guruhda ham o'sish kuzatilgan bo'lsa-da, darajalar orasidagi tafovut juda katta bo'lgan. 2023-yilda soliq yengilliklari joriy qilingach (grafikda punktir chiziq bilan ko'rsatilgan),

qoloq hududlarda egri chiziqli nisbatan tiklashib, o'sish sur'ati oshgan. Bu dastlabki vizual dalil bo'lib, uning ekonometrik tasdig'i DID tahlili yordamida yuqorida muhokama qilindi (1-jadval).

Endi soliq imtiyozlarining ayrim boshqa ko'rsatkichlarga ta'sirini ham ko'rib chiqamiz. Rasmiy ma'lumotlarga ko'ra, 2023-yilda 47 ta og'ir tuman kesimida jami 60 mingga yaqin yangi ish o'rni yaratilgan bo'lib, bu 2022-yilga nisbatan qariyb 1,3 baravar ko'pdur. Mazkur farqni ham imtiyozlar bilan bog'lash mumkin. Mahalliy budget daromadlari tarkibida esa qiziq holat kuzatilgan. Mol-mulk va yer soliqlari bo'yicha tushum 5-toifa hududlarda 2022-yilga qaraganda tushgan bo'lsada (stavka pasayishi tufayli), savdo aylanmasi ortishi sababli QQS tushumi va aksiz solig'i tushumi sezilarli darajada ko'paygan. Natijada ayrim tumanlarda umumiy budget tushumi deyarli o'zgarmagan yoki hattoki biroz oshgan, ya'ni soliq imtiyozlari o'zini oqlagan. Boshqa tumanlarda esa budget tushumining vaqtincha kamaygani kuzatilmoqda, bu esa yangi tashkil etilgan bizneslarning hali to'liq quvvat bilan ishlamasligi va vaqt bilan bog'liq holat bo'lishi mumkin. Bu kabi fiskal tahlillar imtiyozlarning samaradorligini kompleks baholash tizimining muhim qismidir.

Tahlilning yana bir qiziqarli natijasi barqarorlik reytingi ko'rsatkichlaridagi ijobiy siljishdir. Ma'lum bo'lishicha, soliq yengilliklari amal qilgan davrda og'ir tumanlarda faoliyat yuritayotgan korxonalar orasida soliq intizomiga rioya qilish darajasi oshgan. Masalan, 2024-yil boshida Savdo-sanoat palatasi e'lon qilgan barqarorlik reytingi ma'lumotlarida "A" va undan yuqori toifadagi korxonalar ulushi qoloq hududlarda ham ortgani kuzatildi. Bu nimani anglatadi? Birinchidan, imtiyoz olgan korxonalar o'z majburiyatlarini puxta bajarishga intilmoqda. Chunki reyting yuqori bo'lsa, ularga soliq tekshiruvlari umuman tatbiq etilmaydi, QQS qaytarib berishda bir kunlik ustunlik beriladi. Demak, soliq imtiyozlari korxonalarni oq

iqtisodiyotga chiqish va oshkora faoliyat yuritishga rag'batlantirishi mumkin. Bu jarayon esa umumiy iqtisodiy barqarorlikni oshiradi. Ikkinchidan, yuqori reytingli korxonalar sonining ortishi hududda ishonchli va barqaror ish beruvchilar ko'payayotganini ko'rsatadi. Bu uzoq muddatli rivojlanish uchun ijobiy omil. Shu sababli, bizning baholash tizimimizda reyting ko'rsatkichlarining o'zgarishi ham samaradorlik mezonlaridan biri sifatida tanlab olingan edi va dastlabki natijalar bu borada ham ijobiy tendensiyanı tasdiqlamoqda.

Yuqoridagi tahlillar, albatta, to'liq yakuniy xulosa uchun hali asos bo'la olmaydi. Statistik ishonchlilikni ta'minlash va aniqroq baholar olish uchun yana bir necha yil kuzatuvlar talab etiladi. Hozircha 2023-yil va 2024-yilning dastlabki oylariga oid ma'lumotlar tahlil qilindi xolos. Kelgusida 2025-2026-yillar ma'lumotlarini qo'shib, regressiya modelini takomillashtirish, shuningdek, imtiyozlar muddati tugagach natijalar barqaror qoladimi yoki yo'q shuni ham alohida o'rganish lozim bo'ladi. Shuningdek, soliq imtiyozlari samarasini yanada oshirish uchun regressiv stavkalarni joriy etish bo'yicha tavsiyalar sinab ko'rilishi mumkin. Masalan, amaldagi tartib bo'yicha 5-toifa tumanlarda barcha korxonalar mol-mulk va yer solig'ini 0,75 foiz stavkada to'lamoqda. Kelgusida barqarorlik reytingiga qarab differensial stavkalarni qo'llash taklif etiladi:

O'zbekistonning "og'ir" sharoitli (4-5-toifa) tumanlarida faoliyat yuritayotgan va barqarorlik reytingi yuqori bo'lgan tadbirkorlik subyektlari uchun yuridik shaxslarning mol-mulkiga solinadigan soliq bo'yicha regressiv imtiyozli stavkalarni joriy etish hamda ularning samaradorligini kompleks uslubiy tizim asosida baholashdan iborat. Bunda amaldagi Soliq kodeksining 415-moddasida nazarda tutilgan 1,5 foizlik bazaviy stavka va Prezidentning PF-287-son Farmoni bilan 2023-2026-yillar

uchun og'ir sharoitli tumanlarda joriy etilgan hududiy imtiyozlar (hisoblangan summaning 50 foizini to'lash tartibi)dan farqli ravishda, 2026-yil 1-yanvardan boshlab barqarorlik reytingi toifalari ("BBB", "A", "AA", "AAA") bilan bog'langan differensial regressiv stavkalar ishlab chiqiladi va ularning budjet tushumlari, investitsion faollik, bandlik va soliq

intizomiga ta'siri ilmiy asoslangan uslubiyot orqali baholanadi.

Reytingga bog'langan mol-mulk solig'i stavkalari:

$$t_{\text{bazaviy}} = 1,5\%$$

Taklif qilinayotgan regressiv stavkalar (2026-yil 1-yanvardan boshlab, og'ir sharoitli tumanlarda):

Reyting toifasi	Chegirma ulushi (bazaviy stavkadan)	Amaliy stavka, %
AAA	100 % chegirma	0,0 %
AA	75 % chegirma	0,375 %
A	50 % chegirma	0,75 %
BBB	25 % chegirma	1,125 %
BB, B, CCC, C, D va boshqalar	0 % chegirma	1,5 %

Ya'ni:

- **BBB** – bazaviy stavkaning 75 foizi:

$$t_{\text{BBB}} = 1,5\% \times 0,75 = 1,125\%$$

- **A** – bazaviy stavkaning 50 foizi:

$$t_A = 1,5\% \times 0,5 = 0,75\%$$

- **AA** – bazaviy stavkaning 25 foizi (75% chegirma):

$$t_{\text{AA}} = 1,5\% \times 0,25 = 0,375\%$$

- **AAA** – to'liq ozod qilish:

$$t_{\text{AAA}} = 1,5\% \times 0 = 0\%$$

Reyting ko'tarilgan sari mulk solig'i stavkasi pasayib boradi (regressiv imtiyozli model). Reyting bo'yicha chegirma koeffitsiyentlarini belgilanadi:

$$d_R = \begin{cases} 1,00, \text{ agar } R = \text{AAA} \\ 0,75, \text{ agar } R = \text{AA} \\ 0,50, \text{ agar } R = \text{A} \\ 0,25, \text{ agar } R = \text{BBB} \\ 0, \text{ agar } R = \text{BB, B, CCC, CC, C, D} \end{cases}$$

Shunda amaliy soliq stavkasi (2):

$$t_R = t_{\text{bazaviy}} \times (1 - d_R) \quad (2)$$

Bu (2) formulaning afzalligi ilmiy maqolada aniq matematik ko'rinishda ko'rsatadi. Bu orqali eng halol va barqaror bizneslar yanada ko'proq rag'bat oladi, past reytingli korxonalar esa imtiyozdan qisman foydalanish uchun o'z holatini yaxshilashga

intiladi. Bunday reytingga asoslangan regressiv stavka tizimi bo'yicha alohida iqtisodiy modellashtiris) o'tkazish, bizning baholash metodikamizning kelgusi qadamlaridan biridir.

Xulosa va takliflar.

Yuqoridagi tahlil va baholashlar asosida xulosa qilish mumkinki, og'ir iqtisodiy sharoitga ega tumanlarda barqarorlik reytingi yuqori tadbirkorlik subyektlari uchun differensial (jumladan, regressiv) imtiyozli mol-mulk solig'i stavkalarini qo'llash iqtisodiy jihatdan o'zini oqlashi kutilmoqda. Ishlab chiqilgan kompleks uslubiy tizim ya'ni ko'rsatkichlar tizimi, ekonometrik model va tahlil usullari majmuasi. Ushbu chora-tadbirlar samaradorligini aniq miqdorlarda baholash imkonini beradi. Dastlabki hisob-kitoblar hududiy soliq imtiyozlari ta'sirida qoloq hududlarda kichik biznes faolligi o'sishi tezlashganini, bandlik va investitsiya ko'rsatkichlari yaxshilanganini ko'rsatmoqda. Eng muhimi, imtiyozlar manzilli berilganda, ya'ni barqaror va qonunbuzarliklarga yo'l qo'ymayotgan tadbirkorlarga yo'naltirilganda, natijalar yanada samarali bo'lishi tasdiqlanmoqda. Buni barqarorlik reytingi yuqori korxonalar ulushining ortishi misolida ko'rdik.

Taklif etilayotgan yondashuvning afzalligi shundaki, u qaror qabul qiluvchilarga aniq dalillarga asoslangan ma'lumot taqdim etadi. Baholash tizimi yordamida soliq imtiyozlarining qaysi hududda, qaysi shartlarda yaxshiroq ishlayotgani aniqlanadi. Misol uchun, agar ayrim tumanlarda imtiyozlar kutilganidek samara bermayotgan bo'lsa masalan, bizneslar soni oshmagan bo'lsa, u holda o'sha hududlar uchun qo'shimcha choralar ishlab chiqish infratuzilmani yaxshilash, kredit imtiyozlari berish lozimligi ma'lum bo'ladi. Aksincha, qaysidir hududda natijalar juda yaxshi bo'lsa, o'sha tajribani boshqalarga tatbiq etish yoki imtiyoz muddatini uzaytirish mumkin.

Shuningdek, kompleks baholash natijalari fiskal barqarorlik nuqtai nazaridan ham muhim xulosa beradi. Soliq stavkasini tushirish orqali kelgusida budjet daromad bazasini kengaytirish imkoni mavjud yoki

yo'qligi aniqlanadi. Agar imtiyozlar tufayli yangi soliqqa tortiladigan subyektlar ko'payib, yalpi soliq tushumi ortayotgan bo'lsa, bu strategiyani davom ettirish lozim. Agarda aks natija kuzatilsa, soliq siyosatini qayta ko'rib chiqish talab etiladi.

Xulosa o'rnida ta'kidlash joizki, mazkur ilmiy ish doirasida ishlab chiqilgan baholash modeli nafaqat ko'rilayotgan holatga, balki umuman turli soliq-imtiyoz siyosatlarini o'rganishga tatbiq qilsa bo'ladigan universal uslubiy asos hamdir. Shu ma'noda, ushbu tadqiqot natijalari O'zbekistonda hududlarni rivojlantirish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlash borasidagi keyingi qarorlar uchun ilmiy asos bo'lib xizmat qiladi deb umid qilamiz. Imtiyozli soliq stavkalarining samaradorligini muntazam o'lchab borish va tahlil qilish esa, o'z navbatida, davlat siyosatining moslashuvchan va maqsadli olib borilishini ta'minlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 30-dekabrda "Respublika hududlarini toifalarga ajratish va tadbirkorlikni qo'llab-quvvatlashning tabaqalashtirilgan tizimini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF-287-son Farmoni.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 23-yanvardagi "Tadbirkorlik subyektlarining barqarorlik reytingini joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-39-son qarori.
3. William J. Baumol. (1996). *Entrepreneurship: Productive, unproductive, and destructive*. *Journal of Business Venturing*, 11(1), 3-22. [https://doi.org/10.1016/0883-9026\(94\)00014-X](https://doi.org/10.1016/0883-9026(94)00014-X)
4. Jeffry A. Timmons. (1989). *The Entrepreneurial Mind*. Brick House Publishing Company. ISBN: 0931790840, 9780931790843. – p.187.
5. Kuckertz, A., & Wagner, M. (2010). *A Systematic Literature Review of Sustainable Entrepreneurship Metrics*. *Journal of Business Venturing Insights*, 14, 1-14.
6. Hyejin Ku va boshq. (2020), *Journal of Public Economics: Norvegiyada hududiy diferensial soliq stavkalari bekor qilinishining natijalarini o'rgangan tadqiqot chekka hududlarda bandlik sezilarli qisqarib, soliq imtiyozlari mavjud paytda ularning samaradorligi yuqori bo'lganini ilmiy isbotlagan*.
7. Nurmatov Sh.R. (2024) "Barqarorlik reytingi mezonlaridan samarali foydalanishni takomillashtirish" *Journal of new century innovations*. Volume-53_Issue-1_May, pp. 216-228.
8. Normurzaev, U. (2022). *Hukumatimiz tomonidan soliq ma'murchiligi bo'yicha 2018-2022-yillarda amalga oshirilgan soliq islohotlari natijalari*.
9. *Economics and Innovative Technologies*, 10(5), 325-330. https://doi.org/10.55439/EIT/vol10_iss5/a35
10. Z.Abdullayev. "Tadbirkorlarning barqarorlik reytingi tizimi tahlili" – *Innovations in Science and Technologies jurnal*, 2025.